

TARJIMA TURLARI TARJIMA QILISH JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLAR

Sobirova Shohsanam Sobirjonovna

UrDU Tarjima nazariyasi va amaliyoti yoʻnalishi 3-bosqich talabasi

E-Mail: shokhsanamsobirova@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada tarjima turlari, tarjima qilish normalari va tarjima qilish jarayonida qoʻllaniladigan tarjima usullarining vazifasi haqida batafsil bayon qilingan. Maqolada tarjimada koʻp uchraydigan qiyinchiliklar tahlil qilingan.

Аннотация

В этой статье делается широкое заявление о видах перевода, переводческих нормах, функциях методов перевода, используемых в процессе перевода, и общих трудностях перевода.

Abstract

In this article, a broad statement is made about types of translation, translation norms, the function of translation methods used in the process of translation, and common difficulties in translation.

Kalit soʻzlar: Ketma-ket tarjima, tarjima tarixi, vizual tarjima, soʻzma-soʻz tarjima, sinxron tarjima, semantik maʼno, soʻz tanlash.

Ключевые слова: последовательный перевод, история перевода, визуальный перевод, дословный перевод, синхронный перевод, семантика, подбор слов.

Key words: Consecutive translation, history of translation, visual translation, word-for-word translation, simultaneous translation, semantics, word choice.

KIRISH

Tarjima va tarjimonlik uzoq asrlardan buyon dunyo xalqlarining madaniyatida shakllanib kelayotgan eng qadimgi sohalaridan biridir. Yer yuzining turli qit'a va



mintaqalarida bir necha ming yildan buyon umrguzaronlik qilib kelayotgan xalqlar o'z ijodkorlik havaslari, qiziqishlari, imkoniyatlari, manfaatlarini tarjima vositalari orqali namoyon qilishgan. Tarjima va tarjimonlar orqali insoniyat bir - birlaridan xabardor bo'lib, o'zaro muloqotda bo'lishgan. Tarjima inson taraqqiyotida, uning madaniy hayotida juda katta va muhim rol o'ynaydi.

ASOSIY QISM

Tarjima — bir tildagi matnlar, maqollar, iboralarni yangi bir tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko'rinishlaridan hisoblanadi. Tarjima qadimgi davrlarda, turli qabilaga mansub kishilar orasidagi o'zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli yuzaga kelgan. Tilmochlik deb ataladigan bu og'zaki tur hozirda ham saqlanib qolgan. Zamonlar osha tarjimaga bo'lgan talablar asta -sekin yangilana boradi. Ammo uning ijodiy xarakteri, qayta yaratish san'ati ekanligi o'zgarmaydi. Tarjimaning ko'lami va taraqqiyoti har bir xalqning ma'rifiy darajasiga bog'liq va, o'z navbatida, u millatning ijtimoiy tafakkuriga samarali ta'sir etadi. "Tarjima" tushunchasi bir tildan ikkinchi tilga o'girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi.

XX asr o'zbek yozuvchilaridan Cho'lpon, G'afur G'ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilov, Askad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Ali va boshqalar tarjima sohasida ham samarali ijod qilganlar. Badiiy tarjima sohasida M. Osim, N. Alimuhamedov, Sh. Shomuhamedov, K. Qaxdorova, O. Sharopov, Sh. Tolipov, V. Ro'zimatov, Q. Mirmuhamedov, A. Rashidov, M. Hakimov, I. G'afurov, M. Mirzoidov, g'. To'rabekov, T. Alimov va boshqalar professional tarjimon sifatida tanilganlar. O'zbek tilida ilmiy-texnikaviy, ijtimoiy siyosiy adabiyotlar tarjimachiligida ham katta yutuqlarga erishilgan. Bunda R. Abduraxdyunov, V. Rahimov, A. Shomahmudov, Z. Tincherova kabi tarjimonlarning hissasi katta.

Tarjimaning quyidagi turlari mavjud:

- 1) **Ketma-ket tarjima.**
- 2) **Vizual tarjima.**
- 3) **Sinxron tarjima.**

Ketma-ket tarjima qilish bu bir tilda og'zaki axborot berilgandan so'ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so'zlovchining umumiy fikrlari yoki eng

kamida asosiy aytilgan gaplarni tinglaydi va so'ng tinglash chog'ida yozib olingan eslatmalar yordamida nutqni tarjima qiladi. Tarjimon so'zlovchi nomida asliyatdan boshqa tilga ketma-ketlikda tarjima qilib boradi. Bu tarjima turi esa ikkiga ajratiladi.

Birinchi bosqich so'zlovchining nutqini o'z ichiga oladi va bunday tarjima qilishda tarjimon qisqacha nutqni yozib olishi mumkin.

Ikkinchi bosqichda tarjimon aytgan gaplarni yozib olganlaridan foydalangan holda tarjima qiladi.

Albatta, bu tarjima qilish uslubidayam qiyinchiliklar juda ko'p. Inson xotirasi barcha ma'lumotlarni yodda saqlab qolish imkoniyatiga ega emas. Tarjimon matnda fikrning mantiqiy zanjirini topishi va so'zlovchi nutqining semantik asosini ochib berishi muhimdir. Inson odatda 7 yoki 5 ta semantik asosni yodda saqlay olishi mumkin. Agar gapirayotgan inson tarjimonga biroz sekinlab imkon bermasa, tarjimada xatoliklar va tushib qoldirishlar yuzaga keladi. Ketma-ket tarjima qilishning **3 ta asosiy prinsipi** mavjud: *Anglash, tahlil qilish va qayta ifoda qilish*. Anglash prinsipida so'zlar emas, balki umumiy bo'lgan fikrlarni tarjima qilinishi muhimdir. Agar tarjimon so'zlovchining nutqidagi biron bir so'zning tarjimasini bilmasa, u bu so'zning ma'nosini kontekstdan anglab yetishi zarur. Har qanday nutqda **2 ta asosiy lahza** majud. Ular nutqning boshlanish va tugashidir. Tarjimon shularni maromida bajara olsagina mukammal tarjima yaratiladi.

Vizual tarjima. Ba'zi tarjimonlar vizual tarjima qilishdan oldin o'sha nutqning yozma shaklini ko'rib chiqadi. Tarjima qilish uchun ajratilgan joyda, matnni ko'rib tarjima qilish, yozma matnni o'qishga o'xshab emas, balki og'zaki nutq singari eshitilishi kerak. Vizual tarjima qilish bo'lajak tarjimonlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Vizual tarjima qilish deb bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga tarjima qilib o'qishga aytiladi. Vizual tarjima qilish boshqa tarjima turlariga qaraganda osonroq. Biroq, vizual tarjima qilishga qo'shimcha sifatida tarjimon so'zlovchi yozma matndan tashqariga chiqmayotganiga amin bo'lishi kerak. Tarjimaning bu shaklida, tarjimon ilmiy va texnik majlislarda qiyinchiliklarga duch keladi. Yozma material tarjima jarayonida yuqori tezlikda o'qilgan bo'lsa ham, tarjimon shu orada bir qancha vazifalarni bajarishi kerak:

1. So'zlovchining gaplarini to'g'ri tushunganini tekshirishi.
2. Axborotni yakunlash.



3. Tarjima qilish kerak bo'lgan matnni ko'rib tarjima qilish.

Vizual tarjima qilish har qanday tarjimonni o'qitish jarayonining asosiy qismidir. Vizual tarjima qilish bo'lajak tarjimonlarni kelajakdagi kasblariga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Tarjimaning bu usuli orqali yosh tarjimonlar tezlik va jadal tarjima qilish mahoratlarini oshiradilar.

Sinxron tarjimada tarjimon tarjima qilish uchun belgilangan joyda o'tiradi va quloq eshitgich orqali so'zlovchini tinglaydi. So'ng tinglash chog'ida mikrofon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy tilni quloqchinlar orqali tinglashadi. Sinxron tarjima **imo-ishoralar orqali** (kar va soqovlar uchun) ham bajarilishi mumkin. So'zlangan tildan imo-ishora tiliga tarjima qilinadi. Imo-ishorada tarjimonlar ular uchun belgilangan joylarda o'tirishmaydi, ular so'zlovchini ko'ra oladigan va boshqa qatnashchilarga ko'rina oladigan konferensiya xonasida turishadi.

Hozirgi kunda sinxron tarjima maxsus moslamalar bilan bajarilyapti: delegatlar kabinada so'zlanayotgan gapni quloqchin orqali tinglab o'tirgan tarjimonlarga to'g'ridan-to'g'ri mikrofondan gapirishadi. Tarjimonlar tarjimoni eshitishni istayotgan, quloqchin taqib olgan delegatlarga mikrofon orqali tarjima qilishadi. Ba'zi hollarda moslamalar mavjud bo'lmasa ham, sinxron tarjima qilsa bo'ladi. Ishtirokchilardan biri so'zlaydi va bir vaqtning o'zida tarjimon tarjima qiladi. Bu tarjima jarayoni eng qiyin tarjima qilish uslubidir. Chunki tarjimon so'zlovchining nutqini asliyatdan boshqa tilga tezlik bilan va tushirib qoldirmasdan tarjima qilishi kerak. Bunday tarjimonlar tilni a'lo darajada egallagan bo'lishlari kerak.

Ilk sinxron tarjima tajribasi 1928-yilda VI Komintern Kongressida bo'lib o'tgan. O'sha davrda telefonlar yo'q edi. Ilk sinxron tarjima qilish uchun xonalar va quloqchinlar 1933-yil Kominternning ijro etuvchi 13-yalpi majlisida paydo bo'lgan. Rossiyaning Moskva shahrida bo'lgan bir guruh sinxron tarjimonlari Nurenberg sud jarayonlariga xizmat ko'rsatuvchi konferensiya tarjimonlarining guruhini tuzdi va boshqalari Yaponiya urush jinoyatchilari ustidan bo'lgan Tokio sud jarayonlarida qatnashdi. Ana shu dastlabki konferensiyalarda ishlagan tarjimonlar ilk sinxron tarjimonlar sifatida talqin qilinadi. Ular Chet tillar harbiy instituti (1942-yil Chet Tillari Moskva pedagogika Institutining Harbiy Departamentiga asoslangan holda tashkil qilingan)ning yosh bitiruvchilari edi. Tarjimonlarning mashq jarayonlarida



Moskva universiteti va Falsafa universiteti, shuningdek, tashqi vazirlik a'zolari va chet davlatlar bilan madaniy aloqalar jamiyati xodimlari qatnashganlar. 1952-yil Moskvada o'tgan xalqaro iqtisodiy konferensiya majlisida 50 ta sinxron tarjimon xizmat ko'rsatgan. Konferensiya oltita - rus, ingliz, fransuz, nemis, ispan va xitoy tillarida olib borilgan.

XULOSA

Insoniyatning o'zaro munosabatlari, muomalalari, muloqotlari, turli-tuman aloqalarga tashna-yu ehtiyojmand karvonlari o'n ming yillardan buyon dunyo o'lkalarini kezib, qit'alardan qit'alarga o'tgan. Ketilgan shu karvonlar safida savdogarlar, sarkardalar, olimlar, din ulamolari, targ'ibotchilar, munajjimlar, hunarmandlar, tabobatchilar, hakimlar qatorida, albatta tarjimonlar ham bo'lgan. Qavmlar o'rtasida muomala-munosabatlarning me'yorlari, ittifoqlarning bitimlari, shartnomalari, xalqlarning o'zaro ahd-u paymonlari bilimdon tarjimonlar-tilmochlar orqali hal bo'lib kelgan. Tilmochlar ishlarning o'zaro muvofiq, adolatli bitishi va xalqlarning totuvliklariga xizmat qiladilar. Ular insoniyat qavmlarini turli jaholat balo-ofatlari, behuda qirg'inlardan saqlashga sa'yi-harakat qiladilar. Tarjimonlar xalqlarning bir-birlarini bilish va o'rganishlariga tengsiz hissa qo'shishgan desak yanglishmagan bo'lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1978.
2. Salomov G'. Til va tarjimon. Toshkent: Fan. 1966.
3. Solojonov J., Yuldoshev N. Badiiy tarjima uchun tarjima usullari tahlili // Ta'lim fidoyilari. 1- son, 04. 2022.
4. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi: Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: Tafakkur-Bo'stoni, 2012.